

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№2

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 835 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILYI MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA‘MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o‘g‘li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO‘YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG‘URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBİ: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJİY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJRIBASI	66
Alimardonov G‘ayratjon Nuraliyevich	
XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o‘g‘li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA‘MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUVIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY JIHA TLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHU VLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochildiyevich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	257
<i>Karimov Shohrux Boydulla o'g'li</i>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH	262
<i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>	
QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODEL	266
<i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	272
<i>Norboev Sarvar Azodovich</i>	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	277
<i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>	
ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH	283
<i>B.Beknazarov</i>	



SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIIYASI	288
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ	294
Мегноров Алмардон Абдирахмонович	
RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY	302
Nigmatova Malika	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	307
Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI	311
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ	316
Киличева Ф.Б.	
MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	320
Kushmanova Mahbuba	
GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	324
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	329
Sharapov Farrux Shomuratovich	
КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ ALMGS1 ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ	333
Ибрахимов Фаррухжон Фарходович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	336
G'oziyeva Mokhira Rustamovna	
KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	345
Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'liqin Alimardanovich	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	352
To'g'onov Ibroximxo'ja	
TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI	358
Djalalova Sevara Toxtamuratovna	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	362
Шоев Алим Халмуратович	
TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	367
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	372
Ismatov Raxmatilla Oltinovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA.....	376
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	



BANK TIZIMIDAGI AKTIVLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA STRATEGIK YONDASHUVLAR	379
Sadikov Q.M.	
СЦЕНАРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ И СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	383
Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLARNI TAQDIM QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	390
S.M. Raximova	
YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI	395
Qurbanova Muazzam Fazliddinova	
IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSİYALASHUVI JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING TAHLILI	399
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI	404
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI INVESTITSİYALAR YORDAMIDA QO'LLAB-QUVVATLASH	408
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
FRANSUZ TILIDA FE'L SEMANTIKASINING KO'PMA'NOLILIK VA BIRMA'NOLILIK ASPEKTLARI	412
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Bekmetova Munisa Karimbayevna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARDA CHET-EL INVESTISIYASI VA KREDITLARINI ROLI	418
Sultanov Anvar Abdullaevich	
INSON QON TOMIRLARINING TARMOQLANISHINI L-SISTEMALAR ASOSIDA HOSIL QILISH ALGORITMNI ISHLAB CHIQUISH	423
Boliyeva Dilrabo Nurbek qizi	
YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH)NING AHAMIYATI	429
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	434
Otaylor Usmonaliyev	
TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA ARBITRAJI VA UNING MOHIYATI	440
Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	443
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
DON VA UN MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI	450
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TUXUM ISHLAB CHIQARISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	454
Ismoilov Zuhridin Sayitqulovich	
ZAMONAVIY TURAR-JOY ME'MORCHILIGIDA MILLIYLIK VA AN'ANAVIYLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI	459
Toshniyozov Otabek Hakimovich	
MARKAZIY QIZILQUM FOSFORIT RUDALARIDAN QIMMATBAHO KOMPONENTLARNI KOMPLEKS AJRATISH TEXNOLOGIYASI	464
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Ruzibayeva Dildora Akramovna, Xushvaqtova Dilshoda Shavkat qizi	



BANKLARDA CHAKANA KREDITLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH TARTIBI	470
<i>Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi</i>	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING XALQARO MODELLARI HAMDA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	476
<i>Nodirbek Shavkatovich Mirzaaxmedov</i>	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA XOTIN-QIZLARNING BOSHQARUV KARYERASI: MOHIYATI, ZARURIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	483
<i>Abduraxmonova Feruzabonu</i>	
ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	489
<i>Xoshimov Sobir Murtazayevich</i>	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINING TASHKILIY TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH	495
<i>Uzakova Umida Ruziyevna</i>	
OLIY TA‘LIMNI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGI VA PROFESSOR-O‘QITUVCHI–TALABA NISBATI O‘RTASIDAGI IQTISODIY BOG‘LIQLIK.....	502
<i>Dusanov Salim Mamarasulovich</i>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЫ AML: АНАЛИЗ ПРАКТИК ВЕДУЩИХ БАНКОВ И СТРАН СНГ	507
<i>Рашидов Авазбек Рахимович</i>	
BOJXONA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR TAHLILI	516
<i>Radjapova Latofat Sardorovna</i>	
DEFORMATSİYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ (STANDARD LINEAR SOLID MODEL, SLS) MODEL ISHLAB CHIQISH VA SONINI TAHLIL QILISH	523
<i>Ahmadov Ilhom Aktam o‘g‘li, Faxriddinova Rayhona Vahobjon qizi, Rustamova Ruxsora Kamtar qizi</i>	
ВЛИЯНИЕ КЕРАМИЧЕСКИХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ НА ТЕПЛОВУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КАМЕННОГО ТЕПЛОАККУМУЛЯТОРА В СОЛНЕЧНО-АССИСТИРОВАННЫХ БИОГАЗОВЫХ УСТАНОВКАХ	530
<i>Д.М. Жураханов</i>	
O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KELAJAKDAGI IMKONIYATLARI.....	537
<i>Akbarov Husniddinjon Mo‘ysin o‘g‘li</i>	
MAHALLIY BUDJETLARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA OCHIQLIKNI KUCHAYTIRISH	544
<i>Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich, Normatov Joxongir Murodillayevich</i>	
DON MAHSULOTLARI TARMOG‘IDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	548
<i>Aipova Iroda Ikramovna</i>	
BUXORO VILOYATI SANOATI ISHLAB CHIQARISHINING TARMOQ TARKIBI DINAMIKASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR TAHLILI	554
<i>Toshov Mirzabek Hakimovich</i>	
TEMIR YO‘L TRANSPORTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEZONLARI	560
<i>Nurxo‘jayeva Xilola Hakimxo‘jayevna</i>	
СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ УГОЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТЬЮ НА ОСНОВЕ УСТОЙЧИВОСТИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА	568
<i>Teshaboyev To‘lqin Zakirovich, Muradov Botir Xayat</i>	
IQTISODIYOT TARMOQLARIDA SUV ISTE‘MOLINING BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	578
<i>Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Turg‘unov Muhammadaziz Baxtiyorjon o‘g‘li</i>	
SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA MOBIL ILOVALAR ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI	584
<i>Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Uzakov Sirojiddin Djuraboyevich</i>	



SUN'YI INTELLEKT VA IQTISODIYOTNING O'ZARO ALOQADORLIGI	591
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	
IDENTIFICATION OF WEAVING STRUCTURES IN PILE FABRICS	596
Bahrom Baturovich Dautov, Bakhtiyor Yormakhmatovich Abduganiyev, Erkin Shamsiddinovich Rayxonov, Nazar Kilichov Bafoevich	
INNOVATIVE APPROACHES TO ENSURING FINANCIAL STABILITY IN COMMERCIAL BANKS	602
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATI VA OLIY TA'LIM SIFATI KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK MASALALARI	608
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
TIJORAT BANKLAR FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA UNING AHAMIYATI	613
Kenjayev M.G'	
MAJBURIYATLAR AUDITINING ASOSIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	618
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	623
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI TAHLILI	630
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
JAMOAT YO'LOVCHI TRANSPORTINI YO'NALISHLARDA HARAKATI MUNTAZAMLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR	635
Nazarov Anvar Aripovich, Siddiqov Beknazar Jumanazar o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	643
Ismatullayeva Munisxon Bori qizi	
O'ZBEKISTONDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA RAQAMLI MA'MURCHILIK	649
Yakubov San'atbek Ravshanbekovich	
ISHLAB CHIQRISH SANOATI CHIQINDILARIDAN LITIY BIRIKMALARINI AJRATIB OLIISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIK YECHIMLARI	655
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Komilov Botir Asqar o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIYAVIY RISKLARINI BAHOLASHDA MIQDORIY USULLARDAN FOYDALANISH	663
Raximov Abduxalil Toshbotirovich	
JUN TOLASINI MAYDA VA YIRIK IFLOSLIKlardan TOZALASH TEXNOLOGIYASI VA USKUNALARINI TAKOMILLASHTIRISH	669
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA KASB-HUNAR TA'LIMI TERMINLARINING SEMANTIK QIYOSIY TAHLILI	673
Jabbarova Gulbahor Jumanazarovna	
GAZ BALLONLI AVTOMOBILLARDA RADIOTO'LQINLI UZATMALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TEXNIK NAZORAT TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	677
Mirzayev Bahodir Nuriddinovich, Zulfiqorova Guldon Akbarjon qizi	
MINTAQANING TASHQI SAVDO AYLANMASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARI	682
G'oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich	
IQTISODIY TADQIQOTLARDA SO'ROV O'TKAZISH METODI VA UNING ANKETA HAMDA INTERVYU SHAKLLARINI QO'LLASH MASALALARI	687
Dusmurov Radjabbay Davlatbayevich	



O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHI VA BIZNESDA MANFAATLAR UYG'UNLIGI.....	693
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
DAVLAT MOLIYASI VA BANK-MOLIYA INSTITUTLARINING IQTISODIY O'SISHDAGI O'RNI.....	698
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH YO'NALISHLARI	703
Xolmatov Dilmurod Maxmudjonovich	
TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: AN'ANAVIY BANKING TIZIMIDAN NEOBANKLARGA O'TISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	711
Shokirov Sardor Inotdullo o'g'li	
AVTOMATIK LOKOMATIV SIGNALIZATSIYA KODLARINI UZATISH VA DESHIFRATSIYALASH QURILMASI ISHINI TAHLIL QILISH VA DASTURIY TA'MINOTINI ISHLAB CHIQUISH.....	718
Raxmonov Bobomurod Baxtiyorovich, Qodirov Izzatjon Abrorjon o'g'li	
ФИНАНСОВАЯ МОДЕЛЬ УСКОРЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ ЧЕРЕЗ ОПТИМИЗАЦИЮ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОДДЕРЖКИ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ	724
Касимова Наргиза Сабитджановна	
KORXONALARDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGI VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	729
Omonov Otajon Juraqulovich	
INVESTITSIYALAR VA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	734
Gafurova Umida Fatixovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI HAMDA ULARNING YECHIMLARI BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR TAHLILI.....	740
Bekmetov Xursandbek Iloxamovich	
THE INTEGRATION OF TRADITION AND INNOVATION IN WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN: ECONOMIC MECHANISMS AND STRATEGIC APPROACHES	747
Narzullayeva Gulchehra Salimovna	
KO'TARILGAN TEMIR YO'L ESTAKADASIDA VAGONDAN KO'MIR TUSHIRISH JARAYONIDA CHANG TARQALISHINI BAHOLASH	757
Tohtemirov Inomjon Muqimjonovich, Xudayberganov Sakijan Kabildjanovich	
DUMKAR TIPIDAGI VAGONLARDAN YUKLARNI TUSHURISH VAQTIDA ULARNING AG'DARILISHINI OLDINI OLUVCHI TAKOMILLASHTIRILGAN QURILMANING ILMIY ASOSLARI.....	762
Yusupov Azizjon Qahramonovich, Normoxmatov Bekzodjon Shovkat o'g'li	
TEMIR YO'L STANTSİYALARIDA ARALASH POYEZDLAR HARAKATI UCHUN AVTOMATIK MARSHRUTNI SOZLASH USULI	769
Boltayev Sunnatillo Tuymurodovich, Raxmonov Bobomurod Baxtiyorovich, Kasimova Qamara Amonovna	
O'ZBEKISTON MAHSULOTLARINI XORIJIY BOZORLAR UCHUN TAYYORLASHDA FRANCHAYZING ASOSIDA NUFUZLI BRENDLAR BILAN HAMKORLIK VA QO'SHMA LOYIHALAR MEXANIZMINI ISHLAB CHIQUISH.....	777
Xodjayev Anvar Rasulovich	
AKSIONERLIK JAMIYATLARDA MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITISH.....	783
Syunov Yorqin Bekmurodovich	
INCREASING THE EFFICIENCY INDICATORS OF DIESEL ENGINES BY IMPROVING THE COOLING SYSTEM	789
Khushnaye Obid, Orakbaeva Guljakhon	



TRANSPORT SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK VA IQTISODIY O'SISH INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUV VA IMKONIYATLAR.....	794
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
TURISTIK-REKREATSION XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	801
Usmanova Zumrad Islamovna	
МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ И РЕАЛИЗАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ В РАМКАХ РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА.....	806
Ахмедова Нилуфар Шукратовна, Курбонбекова Мохичехра Туробжоновна	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SOLIQ MA'MURCHILIGI USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	819
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
TOVARLAR VA XIZMATLARNI TABAQALASHTIRISH STRATEGIYASINING XUSUSIYATLARI	825
Sodiqov Miraxror Abbos o'g'li	
AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISHDA XAVF-XATARLARNI BAHOLASHNING INNOVATSION USULLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	830
Saidova Sevaraxon Abdumo'min qizi	



AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISHDA XAVF-XATARLARNI BAHOLASHNING INNOVATSION USULLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO‘LLARI

Saidova Sevaraxon Abdumo‘min qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universitet

Mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: sevarayus96@mail.ru

ORCID: 0009-0006-2683-9332

Annotatsiya. Ushbu maqolada auditorlik tekshiruvini rejalashtirish bosqichining samaradorligini oshirishda xavf-xatarlarni baholashning o‘rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi raqamli iqtisodiyot sharoitida auditorlik sub’ektlari faoliyatining murakkablashuvi va an’anaviy audit usullarining yetarsizligi bilan izohlanadi. Maqolada muallif tomonidan auditni rejalashtirishda “risk-based approach” (xavfga asoslangan yondashuv) modelini qo‘llashning metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Shuningdek, rejalashtirish jarayonida nazorat xavfi va ichki xavfni (inherent risk) aniqlashda inson omilini kamaytirishga qaratilgan innovatsion skoringsiz tahlil usullari taklif etilgan. Tadqiqot natijasida rejalashtirish bosqichida resurslarni (vaqt va xodimlar) to‘g‘ri taqsimlash orqali audit sifatini 25-30% ga oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Auditni rejalashtirish, auditorlik xavfi, risk-menejment, xavfga asoslangan yondashuv (RBA), nazorat xavfi, ichki xavf, aniqlamaslik xavfi, innovatsion metodlar, audit sifatini oshirish, resurslarni optimallashtirish, XAS (Xalqaro audit standartlari).

Abstract. This article explores the role and significance of risk assessment in improving the efficiency of the audit planning stage. The relevance of the study is explained by the increasing complexity of audited entities' activities in the digital economy and the insufficiency of traditional audit methods. The article develops the methodological foundations for applying a risk-based approach in audit planning. Furthermore, innovative scoring analysis methods aimed at reducing the human factor in determining control risk and inherent risk during the planning process are proposed. As a result of the study, the possibilities of increasing audit quality by 25-30% through the correct allocation of resources (time and personnel) at the planning stage are substantiated.

Keywords: Audit planning, audit risk, risk management, risk-based approach (RBA), control risk, inherent risk, detection risk, innovative methods, improving audit quality, resource optimization, ISA (International Standards on Auditing).

Аннотация. В данной статье исследуется роль и значение оценки рисков в повышении эффективности этапа планирования аудиторской проверки. Актуальность исследования обусловлена усложнением деятельности аудируемых субъектов в условиях цифровой экономики и недостаточностью традиционных методов аудита. В статье разработаны методологические основы применения риск-ориентированного подхода (risk-based approach) при планировании аудита. Также предложены инновационные методы скорингового анализа, направленные на снижение влияния человеческого фактора при определении риска контроля и неотъемлемого риска в процессе планирования. В результате исследования обоснованы возможности повышения качества аудита на 25-30% за счет правильного распределения ресурсов (времени и персонала) на этапе планирования.

Ключевые слова: Планирование аудита, аудиторский риск, риск-менеджмент, риск-ориентированный подход (РОП), риск контроля, неотъемлемый риск, риск необнаружения, инновационные методы, повышение качества аудита, оптимизация ресурсов, МСА (Международные стандарты аудита).



KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti globallasuvi va raqamli transformatsiya sharoitida auditorlik faoliyatining sifatini oshirish, ayniqsa, tekshiruvlarni rejalashtirish bosqichini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvni samaradorligi ko'p jihatdan rejalashtirish bosqichida xavf-xatarlarning qanchalik to'g'ri baholanganiga bog'liq. An'anaviy audit usullari ko'p vaqt talab qilishi va inson omiliga tayanib qolishi sababli, zamonaviy bosqichda xavfga asoslangan yondashuv (risk-based approach) innovatsion yechim sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasida auditorlik sohasini isloh qilish borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5210-sonli qarori sohani xalqaro standartlarga to'liq o'tkazish va nazorat sifatini yangi bosqichga ko'tarishni maqsad qilgan [2]. Mazkur qonunchilik bazasining takomillashtirilishi auditorlik tashkilotlari zimmasiga rejalashtirish jarayonlarini yanada optimallashtirish mas'uliyatini yuklaydi [3].

Mazkur islohotlar doirasida auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda Xalqaro audit standartlarining (XAS), ayniqsa XAS 315 "Mijoz va uning muhitini o'rganish orqali muhim buzilishlar xavfini aniqlash va baholash" standarti talablarini amaliyotga chuqur tatbiq etish dolzarb hisoblanadi [4]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, auditni rejalashtirishda xavflarni to'g'ri modellashtirish auditorlik namunasining (sampling) aniqligini oshiradi va aniqlanmagan xatolar ehtimolini minimallashtiradi [5].

Ushbu maqolaning maqsadi — auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda xavf-xatarlarni baholashning innovatsion metodikasini ishlab chiqish va bu orqali audit resurslarini eng yuqori riskli sohalarga yo'naltirish mexanizmini asoslab berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va unda xavf-xatarlarni baholash masalalari ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, xalqaro miqyosda E.A. Arens va J.K. Lobbeklar auditni rejalashtirishda mijozning biznesini tushunish va xavf darajasini dastlabki bosqichda aniqlash audit sifatini ta'minlovchi asosiy omil ekanligini ta'kidlashgan [6]. Ularning fikricha, auditorlik xavfi modeli $AR = IR \times CR \times DR$ faqat matematik hisob-kitob emas, balki auditorning kasbiy skeptitsizmi mahsulidir.

Mahalliy olimlardan A.K. Ibragimov va B.B. Sugirbayevlar o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirishda rejalashtirish bosqichining uslubiy asoslarini takomillashtirish zarurligini asoslab berishgan [1]. Ular auditni rejalashtirishda "strategik rejalashtirish" va "batafsil rejalashtirish" bosqichlarini ajratib ko'rsatib, har bir bosqichda risk-menejment elementlarini qo'llashni taklif etishadi.

Shuningdek, Sh.T. Mardonov o'zining ilmiy izlanishlarida auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish va rejalashtirish jarayonlarini standartlashtirish orqali auditorlik xatolarini kamaytirish masalalariga alohida to'xtalib o'tgan [5]. Biroq, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi rejalashtirish bosqichida nafaqat an'anaviy tahlil, balki innovatsion skoring modellarini va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlilini joriy etishni talab qilmoqda.

Xorijiy tadqiqotchi R. Adams esa auditni rejalashtirishda nazorat tizimining samaradorligini baholashda statistik usullardan ko'ra, ko'proq mantiqiy-tahliliy modellarga tayanish lozimligini qayd etadi [7].

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, auditni rejalashtirishda xavf-xatarlarni baholash bo'yicha nazariy asoslar yetarli bo'lsa-da, aynan innovatsion texnologiyalar yordamida bu jarayonni optimallashtirish va resurslarni taqsimlashning aniq algoritmlari hali to'liq ishlab chiqilmagan. Bu esa tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda auditorlik tekshiruvini rejalashtirish samaradorligini oshirish uchun xavfga asoslangan skoring (Risk-based Scoring) modeli metodologik asos qilib olindi. Tadqiqot ob'ekti sifatida auditorlik tashkilotlarining mijoz korxonalarini faoliyatini tahlil qilish jarayonlari tanlangan.

Tadqiqotda quyidagi uslubiy yondashuvlar majmuidan foydalanildi:

1. Miqdoriy tahlil (Quantitative Analysis): Auditorlik xavfi modelining ($AR = IR \times CR \times DR$) tarkibiy qismlarini raqamli ko'rsatkichlar yordamida baholash.

2. Skoring usuli (Scoring Method): Mijozning ichki nazorat tizimi (CR) va biznes muhiti (IR) xavflarini 1 dan 5 gacha bo'lgan ballar asosida tasniflash.

3. Matritsaviy yondashuv: Xavf darajasi va audit resurslari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun "Xavf-Resurs" matritsasini ishlab chiqish.

Innovatsion metodikaning algoritmi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1-bosqich: Mijozning moliyaviy hisobotlaridagi “muhim buzilishlar” ehtimolini sun’iy intellekt yoki avtomatlashtirilgan tahlil dasturlari yordamida dastlabki skanerlash.

2-bosqich: Aniqlangan xavflarni sohalar bo‘yicha (masalan: realizatsiya, xaridlar, ish haqi) guruhlash va ularga xavf koeffitsiyenti (K_r) berish.

3-bosqich: Auditorlik namunasini (sampling) shakllantirishda, xavf koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan sohalarga tanlanmaning 80% qismini yo‘naltirish.

Mazkur metodologiya auditorlik tekshiruvi rejasini sub’ektiv (auditorning shaxsiy fikri) yondashuvdan ob’ektiv (ma’lumotlarga asoslangan) yondashuvga o‘tkazishga xizmat qiladi [8]. Bu esa XAS 315 standarti talablarini amaliyotda to‘liq bajarilishini ta’minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, auditni rejalashtirishda xavfni baholashning an’anaviy usuli ko‘pincha sub’ektiv xarakterga ega bo‘lib, auditorlik resurslarining barcha yo‘nalishlar bo‘yicha teng taqsimlanishiga olib keladi. Taklif etilayotgan innovatsion skoring modeli esa xavf darajasini quyidagi mezonlar asosida ballarda hisoblashni nazarda tutadi.

Auditorlik xavfini baholashning skoring modeli. Ushbu modelda har bir yo‘nalish (modul) bo‘yicha xavf darajasi 1 dan 5 gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha baholanadi. (1-jadval)

1-jadval. Audit yo‘nalishlari bo‘yicha xavfni skoring baholash (Namuna)

Audit yo‘nalishi (modul)	Ichki xavf (IR)	Nazorat xavfi (CR)	Umumiy skoring balli	Xavf darajasi
Pul mablag‘lari tahlili	2	1	3	Past
Debitorlik qarzlari	4	5	9	Yuqori
Tovarlar va zaxiralar	4	4	8	Yuqori
Ma‘muriy xarajatlar	2	2	4	O‘rta
Asosiy vositalar	1	2	3	Past

Eslatma: Skoring balli IR va CR yig‘indisi asosida hisoblanadi (8-10 ball: yuqori, 4-7 ball: o‘rta, 1-3 ball: past)

Yuqoridagi keltirilgan skoring tizimi auditorga tekshiruv ob’ektini sub’ektiv baholashdan voz kechib, miqdoriy ko‘rsatkichlarga asoslanish imkonini beradi. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Debitorlik qarzlari” va “Tovarlar va zaxiralar” yo‘nalishlari bo‘yicha umumiy skoring ballari eng yuqori (tegishli 9 va 8 ball) deb topilgan. Bu ushbu sohalarda ham ichki xavf (biznesning o‘ziga xos xususiyatlari), ham nazorat xavfi (korxonaning ichki nazorat tizimidagi bo‘shliqlar) yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Aksincha, “Asosiy vositalar” va “Pul mablag‘lari” modullari bo‘yicha skoring ballarining pastligi (3 ball), ushbu yo‘nalishlarda nazorat tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilganligini va xatoliklar ehtimoli kamligini ko‘rsatadi. Ushbu skoring natijalari rejalashtirishning keyingi bosqichida auditorlik dasturini (Audit Program) shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Ya’ni, auditor o‘zining asosiy vaqtini va eng tajribali mutaxassislarini skoring ballari yuqori bo‘lgan “qizil hudud” (High Risk) modullariga yo‘naltirishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Bu yondashuv XAS 315 standartining “muhim buzilishlar xavfini aniqlash” talabiga to‘liq javob beradi.

Resurslarni taqsimlashning qiyosiy tahlili. Innovatsion modelning asosiy natijasi — auditorlarning ish vaqtini (man-hours) xavf darajasiga qarab qayta taqsimlashdir. Quyidagi jadvalda an’anaviy va taklif etilayotgan model o‘rtasidagi farq keltirilgan. (2-jadval)

2-jadval. Rejalashtirishda auditorlar ish vaqtining taqsimlanishi (100 soatlik tekshiruv misolida)

Audit yo‘nalishi	An’anaviy usul (ish vaqti, soat)	Innovatsion model (ish vaqti, soat)	Samaradorlik koeffitsiyenti
Yuqori xavfli sohalar	40 soat	70 soat	+75% (fokus ortishi)
Past xavfli sohalar	40 soat	10 soat	-75% (vaqt tejilishi)
Rejalashtirish va hisobot	20 soat	20 soat	Stabillik
JAMI	100 soat	100 soat	Sifat ortishi

2-jadvalda keltirilgan qiyosiy ma’lumotlar auditni rejalashtirishda innovatsion modelning nafaqat nazariy, balki yuqori amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. An’anaviy yondashuvda auditorlik resurslari (ish vaqti) barcha modullar bo‘yicha deyarli teng (40/40) taqsimlangan bo‘lsa, bu yuqori xavfli sohalarda xatolarni



aniqlamaslik ehtimolini oshiradi.

Taklif etilayotgan modelga ko'ra, ish vaqtini taqsimlashda "Pareto tamoyili" (resurslarning 80 foizini 20 foiz eng muhim muammolarga qaratish) elementlari namoyon bo'ladi. Xususan:

1. Yuqori xavfli sohalarda ish vaqtining 40 soatdan 70 soatga (75% ga) oshirilishi auditorga ko'proq mazmunli testlar (substantive tests) o'tkazish va yashirin risklarni aniqlash imkonini beradi.

2. Past xavfli sohalarda esa vaqtning 10 soatgacha qisqartirilishi auditning umumiy vaqtini tejashga emas, balki "samarasiz tekshiruvlar"dan qochishga xizmat qiladi.

Ushbu taqsimot natijasida auditning umumiy samaradorlik koeffitsiyenti ortadi. Ya'ni, bir xil vaqt sarfi (100 soat) bilan ancha sifatli va xatolar ehtimoli minimal bo'lgan auditorlik xulosasiga erishish mumkin. Bu esa auditorlik tashkilotiga o'z resurslarini optimallashtirish va mijoz oldida tekshiruv sifatini kafolatlash imkonini beradi [9].

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, taklif etilayotgan modelni qo'llash natijasida:

1. Auditning sifati (Reliability): Yuqori xavfli sohalarga (masalan, debitorlik qarzlari va zaxiralar) ajratiladigan vaqtning 1.7 barobar ortishi natijasida muhim buzilishlarni aniqlash ehtimoli 25-30% ga oshishi mumkin.

2. Samaradorlik: Past xavfli sohalarda tekshiruv hajmini kamaytirish hisobiga umumiy auditorlik xavfi (AR) minimallashtirilishi mumkin.

3. Avtomatlashtirish imkoniyati: Skoring ballari asosida auditorlik dasturi avtomatik ravishda tekshiruv dasturini (Audit Program) shakllantirish imkoniga ega bo'lishi mumkin.

Ushbu natijalar XAS 300 va 315 standartlarida belgilangan "auditni samarali rejalashtirish" tamoyillariga to'liq mos keladi va amaliyotda auditorlik tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshiradi [10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish bosqichida xavf-xatarlarni baholashning innovatsion usullari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Metodologik yondashuv: An'anaviy auditdan xavfga asoslangan auditga o'tish faqatgina Xalqaro audit standartlari (XAS) talabi bo'lib qolmay, balki raqamli iqtisodiyot sharoitida audit sifatini ta'minlashning yagona yo'lidir.

2. Samaradorlik ko'rsatkichi: Taklif etilgan skoring modeli auditorlik resurslarini xavf darajasi yuqori bo'lgan sohalarga yo'naltirish orqali tekshiruvning aniqligini 25-30% ga oshiradi va aniqlanmagan xatolar xavfini minimallashtiradi.

3. Vaqt optimallasuvi: Resurslarni qayta taqsimlash (2-jadvalda ko'rsatilganidek) auditorga past xavfli sohalarda vaqtni tejash va asosiy e'tiborni tizimli muammolarga qaratish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

a) Normativ hujjatlarni takomillashtirish: Auditorlik tashkilotlarining ichki standartlariga xavfni baholashning miqdoriy (skoring) ko'rsatkichlarini majburiy element sifatida kiritish.

b) Raqamlashtirish: Rejalashtirish jarayonida mijozning ma'lumotlar bazasi bilan integratsiyalashgan, xavf darajasini avtomatik hisoblovchi dasturiy modullarni ishlab chiqish va joriy etish.

c) Kadrlar malakasi: Auditorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash o'quv dasturlariga "Risk-based auditing" va "Data Analytics" modullarini chuqurlashtirilgan tartibda kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B. Auditorlik faoliyati. Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2021. – 112-115-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish va auditorlik tashkilotlari faoliyati sifatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 04.08.2021 yildagi PQ-5210-son.// <https://lex.uz/docs/5549040>
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Auditorlik faoliyati to'g'risida" gi O'RQ-677-son, 25.02.2021 y.// <https://lex.uz/docs/5308421>
4. International Standard on Auditing (ISA) 315 (Revised 2019). "Identifying and assessing the risks of material misstatement" – 45-60 p.// https://www.ifac.org/system/files/publications/files/ISA-315-Revised-2019_0.pdf
5. Mardonov Sh.T. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 22-25-betlar.
6. Arens E.A., Lobbek J.K. Audit. – M. Finansi i statistika, 2011. – 560s.
7. Adams R. Osnovi audita. – M.Audit, YUNITI, 1995. – 398 s
8. Xalqaro audit standarti (ISA 530). "Audit Sampling". – 12-18 p.// <https://www.ifac.org/system/files/publications/files/ISA-530.pdf>
9. Gulyamova F.G. Auditni rejalashtirishda tahliliy amallarni qo'llash metodikasi. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2021.–№3. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/21_F_Gulyamova.pdf
10. Daminov I.A. Auditorlik tekshiruvda risklarni baholashning zamonaviy yondashuvlari. "Moliya" jurnali. – 2022. – № 2. – 88-92-betlar.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100